

UDK: 37.013.73

**KASBIY KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK JIHATLARI****Matvafayev Azizbek Gaibnazar o'g'li,***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti**“Yakka kurash” kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning pedagogik jihatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Kasbiy kompetentlik shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati sifatida yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari – motivatsion, kognitiv, kommunikativ, refleksiv va innovatsion komponentlari pedagogik nuqtayi nazardan izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, kasbiy faoliyat, bilim, ko'nikma va malaka, pedagogik mahorat, kommunikativ kompetensiya, refleksiv yondashuv, innovatsion faoliyat, kreativ fikrlash, tanqidiy tafakkur, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

**Abstract.** This article analyzes the essence of the concept of professional competence and its pedagogical aspects on a scientific and theoretical basis. Professional competence is interpreted as an individual's ability to effectively organize specific professional activities, make independent decisions in complex pedagogical situations, and apply knowledge, skills, and abilities in practice. The study explains the structural components of professional competence — motivational, cognitive, communicative, reflective, and innovative components — from a pedagogical perspective.

**Keywords:** professional competence, pedagogical competence, professional activity, knowledge, skills and abilities, pedagogical mastery, communicative competence, reflective approach, innovative activity, creative thinking, critical thinking, learner-centered education.

**Аннотация.** В данной статье на научно-теоретической основе анализируются сущность понятия профессиональной компетентности и её педагогические аспекты. Профессиональная компетентность рассматривается как способность личности эффективно организовывать определённую профессиональную деятельность, самостоятельно принимать решения в сложных педагогических ситуациях, а также применять знания, умения и навыки на практике. В исследовании с педагогической точки зрения раскрываются структурные компоненты профессиональной компетентности — мотивационный, когнитивный, коммуникативный, рефлексивный и инновационный компоненты.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, педагогическая компетенция, профессиональная деятельность, знания, умения и навыки, педагогическое мастерство, коммуникативная компетенция, рефлексивный подход, инновационная деятельность, креативное мышление, критическое мышление, личностно-ориентированное образование.

**Kirish.** Jahon ta'lim tizimida kechayotgan modernizatsiya jarayonlari pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasi jamiyat salomatligi, yoshlar jismoniy faolligi va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'layotgan bir davrda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat sport mashqlarini o'rgatuvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning fiziologik rivojlanishi, psixologik holati, kommunikativ

faolligi va sog'lom hayotga oid dunyoqarashini shakllantiruvchi pedagog sifatida ham faoliyat yuritadi.

Shu sababli bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki an'anaviy bilim berishga asoslangan tayyorlov modeli zamonaviy pedagogik ehtiyojlarni to'liq qondira olmayapti. Endilikda ta'lim jarayonida talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, kasbiy motivlari va refleksiv faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik jarayon markaziga talaba shaxsini qo'yadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir talaba o'zining individual psixologik xususiyatlari, intellektual salohiyati, jismoniy imkoniyatlari va kasbiy qiziqishlariga ega noyob subyekt sifatida qaraladi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni tayyorlashda bu yondashuvning ahamiyati yanada ortadi. Chunki sport-pedagogik faoliyat individual yondashuv, motivatsion boshqaruv va amaliy refleksiyani talab etadi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Amerikalik olim J. Raven kompetentlikni muayyan faoliyatni samarali bajarishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar tizimi sifatida izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, kompetentlik insonning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini baholash va ijtimoiy moslashuvchanlikni namoyon etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy tayyorgarligi va amaliy faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Chunki ta'lim jarayonida egallangan bilimlar amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy kompetentlik shakllanadi. Masalan, pedagog o'z fanini chuqur bilishi bilan bir qatorda, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi ham zarur. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogning nazariy bilimlari, metodik tayyorgarligi, kommunikativ madaniyati va refleksiv faoliyatini yagona tizimda birlashtiradi.

Kasbiy kompetentlikning muhim jihatlaridan biri - muammoli vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olish qobiliyatidir. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mutaxassisdan faqat tayyor bilimlarni takrorlash emas, balki yangicha fikrlash, tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash talab etiladi. Shu sababli kompetent mutaxassis vaziyatni tez baholay olishi, mavjud muammoning yechimini mustaqil topishi va o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda bunday sifatlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, kompetentlikning tarkibida refleksiv faoliyat ham muhim o'rin egallaydi. Refleksiya orqali shaxs o'z faoliyatini tahlil qiladi, mavjud kamchiliklarni

aniqlaydi va ularni bartaraf etishga intiladi. Pedagogik faoliyatda reflektiv yondashuv o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'z ustida ishlashga intiladigan, faoliyat natijalarini baholay oladigan pedagoggina zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda rivojlanib boradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bundan tashqari, kasbiy kompetentlik ijtimoiy moslashuvchanlik bilan ham chambarchas bog'liqdir. Inson jamiyatdagi o'zgarishlarga moslasha olishi, turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot olib borishi hamda jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi orqali kasbiy muvaffaqiyatga erishadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetensiya, hamkorlikda ishlash va pedagogik etika talablariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy bilimlari, amaliy tayyorgarligi, ijtimoiy tajribasi, mustaqil fikrlashi va shaxsiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. U mutaxassisning kasbiy faoliyatda samarali natijaga erishishini ta'minlovchi integrativ sifat bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh va ijodkor kadrlarni tayyorlashning muhim mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik kompetentlik masalasini chuqur o'rgangan A.K. Markova esa kasbiy kompetentlikni pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi psixologik va metodik tayyorgarligi bilan bog'laydi [1]. Uning fikricha, kompetent o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot qila olishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi va innovatsion metodlarni qo'llay olishi bilan ham ajralib turadi. A.K. Markovaning ta'kidlashicha, haqiqiy kompetent pedagog, avvalo, o'z fanining mazmunini chuqur va puxta egallagan bo'lishi zarur. Chunki fan bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota olmaydi, murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda izohlashda qiyinchilikka duch keladi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagog uchun faqat nazariy bilimning o'zi yetarli emas. U o'z bilimini amaliy faoliyatda qo'llay olishi, ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishi ham muhim hisoblanadi. Demak, pedagogik kompetentlik nazariy bilim va amaliy faoliyatning uzviy uyg'unligini talab etadi.

**Tahlillar va natijalar.** Olimaning qarashlarida pedagogning psixologik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va ichki imkoniyatlarini hisobga olishi lozim. Chunki har bir o'quvchi o'ziga xos dunyoqarash, xarakter va qobiliyatga ega. Kompetent o'qituvchi ana shu jihatlarni chuqur anglagan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi. Bu esa o'quvchilar bilan ijobiy psixologik muhit yaratish, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan pedagogik munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. A.K. Markova pedagogik kompetentlik tarkibida kommunikativ kompetensiyaga ham katta e'tibor qaratadi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotni boshqaruvchi, motivatsiya uyg'otuvchi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida

faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagogning nutq madaniyati, tinglay olish qobiliyati, o'quvchilar bilan samimiy va ochiq munosabat o'rnatish olishi muhim kasbiy sifatlar hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan jamiyatda o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish pedagog faoliyatining muhim mezoniga aylanmoqda.

Shuningdek, olimlar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularga mos ravishda qaror qabul qilish qobiliyatini ham kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Ta'lim jarayonida turli murakkab vaziyatlar yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Masalan, o'quvchilarning bilim darajasidagi farqlar, darsga qiziqishning sustligi yoki intizom bilan bog'liq muammolar pedagogdan tezkor va oqilona yondashuvni talab qiladi. Kompetent o'qituvchi bunday vaziyatlarda hissiyotga berilmay, pedagogik tahlil asosida eng maqbul usulni tanlay oladi. Bu esa pedagogning kasbiy mahorati va tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir.

A.K. Markova qarashlarida innovatsion metodlardan foydalanish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim jarayoni an'anaviy yondashuvlardan tashqari interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini qo'llashni talab etmoqda. Shu sababli kompetent pedagog yangilikka ochiq bo'lishi, pedagogik innovatsiyalarni o'z faoliyatiga tatbiq eta olishi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi zarur. Innovatsion metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, pedagogik kompetentlik o'qituvchining reflektiv faoliyati bilan ham uzviy bog'liqdir. Refleksiya orqali pedagog o'z faoliyatini baholaydi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etishga intiladi. O'z faoliyatini muntazam tahlil qilib boradigan pedagog kasbiy jihatdan tez rivojlanadi va ta'lim sifatini oshirishga erishadi. Shu jihatdan reflektiv yondashuv pedagogning kasbiy o'sishini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. A.K. Markovanning pedagogik kompetentlik haqidagi qarashlari o'qituvchi shaxsining ko'p qirrali kasbiy sifatlarini yoritishga xizmat qiladi. Olimaning yondashuvida kompetent pedagog - bu chuqur bilimga ega, psixologik jihatdan tayyor, kommunikativ madaniyatni egallagan, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan hamda pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirib boradigan ijodkor mutaxassisdir. Bunday yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh va yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi pedagogika fanida ko'p komponentli tizim sifatida qaralmoqda. Mazkur tizim tarkibiga quyidagilar kiradi:

**Kasbiy bilimlar** – pedagogning o'z mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallaganligini ifodalaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun kasbiy bilimlar sport nazariyasi, anatomiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, gigiyena va sog'lomlashtirish asoslarini bilishni o'z ichiga oladi. Bunday bilimlar pedagogga

o'quvchilarning yosh va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, kasbiy bilimlarning mustahkamligi o'qituvchining o'z faniga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ta'lim jarayonining ilmiy asosda olib borilishiga xizmat qiladi.

**Metodik tayyorgarlik** – pedagogning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, dars metodlarini to'g'ri tanlash va o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarligidir. Metodik jihatdan yetuk o'qituvchi dars maqsadini aniq belgilay oladi, mashg'ulot mazmunini tizimli rejalashtiradi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlar, musobaqa metodlari, individual va differensial yondashuvlardan foydalanish metodik mahoratni talab qiladi. Metodik tayyorgarlik pedagogning ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Sport-amaliy ko'nikmalar** – pedagogning sport turlari va jismoniy mashqlarni amaliy jihatdan bajarish hamda namoyish eta olish qobiliyatini anglatadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarga mashqlarni faqat nazariy tushuntiribgina qolmay, ularni amalda to'g'ri ko'rsatib bera olishi ham zarur. Sport-amaliy ko'nikmalar pedagogning jismoniy tayyorgarligi, harakat texnikasi va sport madaniyati bilan bog'liqdir. Bunday ko'nikmalar o'quvchilarda sportga qiziqish uyg'otadi, sog'lom raqobat muhitini yaratadi hamda mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi.

**Kommunikativ kompetensiyalar** – pedagogning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogning nutq madaniyati, tushuntirish uslubi, rag'batlantirish va motivatsiya bera olish mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiyaga ega o'qituvchi o'quvchilar bilan ijobiy psixologik muhit yaratadi, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

**Refleksiv faoliyat** – pedagogning o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan ichki intellektual faoliyatidir. Refleksiya orqali o'qituvchi o'z darslarining samaradorligini aniqlaydi, mavjud kamchiliklarni ko'radi va ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi refleksiv faoliyat asosida o'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini, mashg'ulotlarning natijadorligini va o'z metodikasining samaradorligini muntazam tahlil qilib boradi. Bu esa pedagogning kasbiy o'sishiga xizmat qiladi.

**Sog'lom turmush madaniyati** – pedagogning sog'lom hayot tarziga amal qilishi va uni o'quvchilar orasida targ'ib qila olish qobiliyatidir. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki sog'lom turmush tarzi namunasi ham bo'lishi kerak. To'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish sog'lom turmush madaniyatining asosiy

ko'rsatkichlari hisoblanadi. Pedagogning shaxsiy namunasiga asoslangan tarbiya o'quvchilarda sog'lom hayotga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

**Innovatsion texnologiyalarni qo'llash malakasi** – pedagogning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Hozirgi raqamli ta'lim muhitida jismoniy tarbiya o'qituvchisidan elektron platformalar, multimedia vositalari, videoanaliz dasturlari va interaktiv metodlardan foydalanish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalar mashg'ulotlarni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarning mustaqil ishlash, o'z natijalarini nazorat qilish va sportga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mazkur kompetensiyalar o'zaro integratsiyalashgan holda bo'lajak pedagogning professional tayyorgarligini belgilaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati boshqa pedagogik faoliyat turlaridan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Chunki bu faoliyat jismoniy yuklama, harakat koordinatsiyasi, sport etikasi, psixologik motivatsiya va sog'lomlashtiruvchi texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik, fiziologik, psixologik va metodik tayyorgarlik uyg'un holda shakllantirilishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – С. 34–36.
2. Raven J. *Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release*. – London: H.K. Lewis, 1984. – 251 p.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
5. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va professional mahorat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 224 b.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2011. – 192 b.